

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINI VOYAGA YETMAGANLAR VA
YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASINI
AMALGA OSHIRISHINI TAKOMILLASHTIRISH**

Sorabekov Sarvarbek

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 2-o 'quv kursanti
Sarvarbek0510@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan Huquqbuzarliklar Profilaktikasiga qaratayotgan e'tibori va ular Huquqbuzarliklar profilaktika xizmatini asosiy bo'g'in sifatida e'tirof etayotganliklarini va bugungi kunda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar soni kun sayin ortib borayotganligi sababli profilaktika inspektorlari ular o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda kuzatilayotgan kamchiliklar va ularni zamonaviy yechimlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Profilaktika, Umumiy, Maxsus, Yakka va Viktimologik Profilaktika, Ijtimoiy-Huquqiy yordam , Ichki va Idoralararo Hamkorlik , Strategiya, Rejalar

Аннотация: В данной статье, внимание, которое Президент Шавкат Миронович Мирзиёев уделяет профилактике правонарушений и то, что главным звеном признают службу профилактики правонарушителей, а количество правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи увеличивается с каждым днем, инспекторы-профилактики говорят о недостатках, наблюдаемых в осуществлении профилактики правонарушений среди них и их современных решениях. проводится.

Ключевые слова: Профилактика, Общая, Специальная, Индивидуальная и виктимологическая профилактика, Социально-правовая помощь, Внутреннее и межведомственное сотрудничество, Стратегия, Планы.

Annotation: This article discusses the attention paid by our President Shavkat Mirziyoyev to Crime Prevention and the fact that they recognize the preventive service of the Ministries of Justice as a key link, and the shortcomings observed in the implementation of crime prevention by prevention inspectors and modern solutions to them, due to the fact that the number of crimes among minors and young people is increasing day by day.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

Keywords: *Prevention, General, Special, Individual and Victimological Prevention, Socio-Legal Assistance, Internal and Interdepartmental Cooperation, Strategy, Plans*

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda O'zbekiston Respublikasi axoli yoshi jihatdan yosh davlatlari orasida yuqorilab bormoqda va bu bizning oldimizga aynan shu voyaga yetmaganlar yoshlarni tarbiyalash va ularni bugungi globallashuv jarayonida turli xildagi yod go'yalardan himoya qilish va ularga huquqiy tarbiya berish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish turli xildagi huquqbazarliklarni oldini olish, aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish albatta Ichki ishlar organlarining Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatining asosiy vazifasi hisoblanadi. Men nega aynan voyaga yetmaganlar va yoshlari o'rtasidagi huquqbazarliklarga e'tibor qaratayotganimning sababini quyidagi statistikani keltirishim mumkin :

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining stat.uz internet saytidagi **“Jinoyat sodir etganligi aniqlangan 13 – 15 yoshdagi shaxslar soni”** haqidagi ma'lumotlarga ko'ra statistika 2019-yildan buyon o'sib kelmoqda.⁴⁸

Nº	Davlat	2019	2020	2021	2022	2023
1.	O'zbekiston Res	129	188	444	687	744

“Jinoyat sodir etganligi aniqlangan 18 – 24 yoshdagi shaxslar soni” haqidagi malumotlarga kora bu statistika ham 2019 yildan buyon o'sib kelmoqda⁴⁹:

Nº	Davlat	2019	2020	2021	2022	2023
1.	O'zbekisto n Res	6588	7491	12465	12728	13340

Yuqoridagi statistikalardan ham ko'rishimiz mumkunki voyaga yetmaganlar va yoshlari bilan o'tkaziladigan huquqbazarliklar profilaktikasi yuqori etibor korsatish kerak ekanligini yaqqol isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Statistikadan ko'rishimiz mumkunki eng yuqori o'sish 2021-yilda kuzatilgan.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi stat.uz sayti

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi stat.uz sayti

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

Buni sababi sifatida Koronavirusi bilan bog'liq bo'lgan karantin holati keltirishimiz mumkin lekin 2023-yilda ham bu statistika o'sishda davom etayotganligi bizni havotirga solishi kerak.

Bu jinoyatlarni o'sishi albatta bizni profilaktikaga etibor qaratishimiz kerakligini bildiradi. Hozirgi kunda Profilaktika inspektorlari O'zbekiston Respublikasining Huquqbazarliklar Profilaktikasi to'g'risidagi qaroring 6-moddasida ko'rsatilgan Huquqbazarliklar Profilaktikasining 4 ta umumiy, maxsus, yakka va viktimologik turlari bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish belgilab o'tilgan.⁵⁰ Men hozir aynan shu profilaktika turlari bo'yicha kamchiliklar va yechimlarni taxlil qilib o'taman:

Huquqbazarliklar Profilaktikasining umumiy turi yuzasidan bir qancha kamchiliklar bor.

Bular doirasiga:

- 1) Profilaktikaga doir davlat dasturlarini ishlab chiqishda yoshlar ishtirokini yetishmasligi.
- 2) Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibotni yetarli darajada bajarmayotganligi.

Bularga yechim sifatida quyidailarni kiritishni bildirgan bo'lar edim:

1) Bilamizki Profilaktika inspektori 1 oyda 1 marotaba aholiga huquqbazarliklar yuzasidan hisobot beradi ayni shu hisobot vaqtida muhokamada bo'lgan qonunlar yuzasidan yoshlardan takliflar olish

2) Shu hisobot davomida voyaga yetmaganlar va yoshlar yashash vaqtida va umri davomida bevosita duch keladigan yangi qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borishi va bu yuzasidan yoshlardan tilxatlar olish belgilianishi

Huquqbazarliklar Profilaktikasining maxsus turi yuzasidan bir necha kamchiliklar bor .

Bular qatoriga:

1) Profilaktika inspektorlari voyaga yetmagan va yoshlarga nisbatan o'tkaziladigan maxsus tadbirlarni yetarli darajada va davomli tashkil etilmaganligi

2) Kriminogen vaziyatni to'g'ri baholay olmaganligi

Bularga yechim sifatida quyidailarni kiritishni bildirgan bo'lar edim:

⁵⁰ Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi "Huquqbazarliklar Profilaktikasi" darsligi

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

1) Ma'muriy hududda joylashgan har bir maktab bilan tanishib chiqish va u yerdagи holatdan kelib chiqgan holda ularga nisbatan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish va boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikni tashkil etish.

2) Profilaktika inspektori hududidagi kriminogen vaziyatni to'g'ri baholashi va kelajakda yuzaga kelishi yuqori bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etishi.

Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar va yoshlар orasida huquqbuzarliklarni oldini olish asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda inspektorlar quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradilar:

- Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish.
- Ularga qonuniy huquq va majburiyatlarni tushuntirish.
- Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning salbiy oqibatlari haqida ma'lumot berish.
- Maktablar va ta'lim muassasalarida profilaktik tadbirlar o'tkazish.

Ta'lim muassasalari bilan hamkorlikning **asosiy yo'nalishlari**:

Ma'naviy-axloqiy tarbiya:

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga axloqiy qoidalar, adolat va hamdardlik, huquqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur. Profilaktika inspektorlari bu dasturlarda ishtirok etib, o'quvchilarga jinoyat va huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlari haqida tushuntirishlar berishlari kerak.

Huquqiy tarbiya:

Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya yoshlarni qonunlarga hurmat bilan qarashga, o'z huquqlarini himoya qilishga va majburiyatlarini bajarishga o'rgatadi. Profilaktika inspektorlari tomonidan o'quvchilarga huquqiy hujjatlar, jinoyat va ma'muriy javobgarlik haqida ma'ruzalar va seminarlar o'tkazish ularga huquqbuzarliklarni oldini olishda yordam beradi.⁵¹

Jismoniy va psixologik rivojlanish:

Huquqbuzarliklarning oldini olishda faqat huquqiy yondashuvlar yetarli emas. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga, sport bilan shug'ullanishga, stressni boshqarishga, psixologik muammolarni hal etishga rag'batlantirish muhimdir. Ta'lim muassasalarida psixologlar va profilaktika inspektorlari o'rtasidagi hamkorlik bu borada samarali bo'lishi mumkin.

Qonunlar va majburiyatlar haqida tushuntirishlar:

O'quvchilarni qonunlarni tushunishga va hurmat qilishga o'rgatish, ularni huquqbuzarliklarning oldini olishda eng muhim vositadir. Maktablar va boshqa ta'lim muassasalari bilan profilaktika inspektorlari o'rtasida yaqin hamkorlik bu

⁵¹ Muhammedovning "Huquqshunoslik asoslari" asari

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

jarayonda samarali natijalar beradi.⁵² Yuqorida voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqbazarliklar va jinoyatlarini ko'payishini profilaktika inspektorlari tomonidan ko'rib chiqdik va bunda ularning kamchiliklarini taxlil qilib bir qator ularga yechim bergan bo'ldik, lekin hozirda voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida huquqbazarliklar va jinoyatchilikning oshishining asosiy sababi bu emas.

Buning yana bir asosiy sababi bugungi kunda ota-onalarning farzandlariga nisbatan o'ta ma'sulyatsizlik bilan munosabatda bo'lishayotganligini keltirishimiz mumkin. Menimcha eng asosiy sabab ham mana shu chunki farzandlarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish bu eng avvalo ota-onaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bugungi juda tez rivojlaninb, taraqqiy etayotgan zamonimizda chet davlatlarda o'zining juda jirkanch maqsadlarini amalga oshirish niyatida ular internet tarmog'idan yoshlarimizga turli xildagi huquqiy negilizmni tadbiq etuvchi, shavqatsizlikni, qo'poruvchilikni, konstitutsiyaviy tuzumga va davlat boshqaruviqa qarshi g'oyalarni shakllantirish uchun harakatlar olib borishmoqda. Afsuski ularni go'yalariga aldanib qolayotganlar ham yo'q emas. Albatta bu holatlarni oldini olish ota-onalarning nazoratisiz erishish juda qiyin masala sababi bolalar ko'p vaqtini uyida o'tkazishadi. Ko'rishimiz mumkunki hozirda ota-onalar asosiy etiborini pul ishlab topishga e'tibor qaratgan va farzandlar tarbiyasiga vaqt ajratishmayabdi. Bu juda xavotirli chunki kelajak yoshlar qo'lida va ular mana shunday g'oyalarga aralashib qolishsa O'zbekistonning kelajagi uchun juda yomon ta'sir qiladi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqbazarlik yoki jinoyat sodir etishida ota-onalarning aybi bir qancha omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.⁵³ Quyidagi jihatlar ko'plab hollarda ota-onalarning mas'uliyatini ta'kidlaydi:

1. Tarbiya va ta'lif:

Ota-onalar farzandlariga to'g'ri tarbiya berish, ijtimoiy qadriyatlar va huquqiy mas'uliyatni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Agar ota-onalar buni e'tiborsiz qoldirsa, yoshlar noto'g'ri yo'llarga kirishlari mumkin.

2. Aloqada bo'lish:

⁵² O'zbekiston Respublikasi "Voyaga Yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonuni

⁵³ Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi "Huquqbazarliklar Profilaktikasi" darsligi

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

Ota-onalar farzandlari bilan to'g'ri va samarali muloqotda bo'lishi zarur. E'tibor va qayg'u ko'rsatish, ularga qo'llab-quvvatlash berish, ular bilan doimo aloqada bo'lismayish, xatoliklarni oldini olishda yordam beradi. Agar bu aloqalar yomonlashsa yoki buzilsa, yoshlar stress va noxush holatlarda noto'g'ri qarorlar qabul qilishlari mumkin.

3. Modellar:

Ota-onalar o'z xatti-harakatlari orqali farzandlariga namuna bo'ladilar. Agar ota-onalar noqonuniy yoki nojo'ya xatti-harakatlar ko'rsatsa (masalan, ichkilikbozlik, giyohvand moddalar iste'moli, o'zaro zo'ravonlik), yoshlar buni normal holat sifatida qabul qilib, aynan shu yo'lni tanlashlari mumkin.

4. Moliyaviy va ijtimoiy muammolar:

Ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy va iqtisodiy holatini inobatga olgan holda ularga imkoniyatlar yaratishlari zarur. Ota-onalar farzandlarini material yoki ruhiy jihatdan ta'minlay olmasalar, bu holat huquqbazarlik va jinoyatga moyillikni kuchaytirishi mumkin.

5. Nazorat va intizom:

Ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy faoliyatlarini nazorat qilishda ehtiyyotkorlik ko'rsatishlari kerak. Maktabdan tashqari vaqtlar, do'stlari va ular bilan o'ynayotgan muhitni tekshirish, xatoliklarni oldini olishga yordam beradi.

6. Emotsional xavfsizlik:

Ota-onalar farzandlariga emotsional qo'llab-quvvatlash va muhabbat ko'rsatishlari kerak. Emotsional noma'lumlik yoki oilaviy zo'ravonlik, yoshlarni aggressiv va huquqbazar yo'nalishlarga olib kelishi mumkin. Agar ota-onalar farzandlariga to'g'ri yo'l ko'rsatsa, ularni ijtimoiy qadriyatlar bilan tarbiyalasa va nazoratda bo'lsa, huquqbazarlik va jinoyatlarning oldini olish mumkin.⁵⁴ Albatta ota-onalar va Profilaktika inspektolari o'rtaida hamkorlik qancha yaxshilasak bu albatta farzandlarga ta'lim tarbiya berish va ularni huquqiy savodxonligini oshirish va dunyo qarashini rivojlantirishda juda asqotadi deb o'ylayman.

Xulosa : Bugungi kunda Voyaga yetmaganlar va yoshlar orasidagi jinoyatchilik oshib borayotganligi – bu mavzuning asosiy sababi deb hisoblasak xato bo'lmaydi. Buni yaqqol misoli o'laroq O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining stat.uz saytidagi statistikadan ham ko'rishimiz mumkin bu boradagi ko'rsatkichlar 2020-yildan buyon

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi "Voyaga Yetmaganlar o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonuni

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

V son, Aprel

oshib bormoqda. Shu sababli biz bu sohadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarni taxlilini doimiy ravishda olib borishimiz kerak. Ushbu sohadagi Huquqbuzarliklar va Jinoyatlarni vujudga kelishining asosiy sabablari va aynan shu sabablarning vujudga kelishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar aniqlash va ularni o'rganish shuningdek ularni bartaraf etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va bunda Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda dasturlar ishlab chiqish haqida biroz bo'lsada fikr yuritgan bo'ldim.

Foydalanilgan adabyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi stat.uz sayti
2. O'zbekiston Respublikasi Huquqbuzarliklar Profilaktikasi to'g'risidagi qonuni
3. Muhammedovning "Huquqshunoslik asoslari" asari
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
5. O'zbekiston Respublikasi "Voyaga Yetmaganlar o'ttasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonuni
6. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi "Huquqbuzarliklar Profilaktikasi" darsligi
7. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi "Ichki ishlar organlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" ma'ruzalar kursi